KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 48 (578) 2025-YIL, 24-OKTABR



Kitobxonlik

"YOSH KITOBXON OILA" TANLOVINING VILOYAT BOSQICHI YAKUNLANDI

Andijon viloyatida yosh kitobxon oilalar o'rtasida kitob o'qish madaniyatini oshirish, oilaviy ma'naviy muhitni mustahkamlashga qaratilgan "Yosh kitobxon oila" tanlovining viloyat bosqichi o'z nihoyasiga yetdi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida tashkil etilgan mazkur tanlov yosh avlodni badiiy adabiyotga bo'lgan muhabbatini kuchaytirish va o'qish madaniyatini shakllantirishga muhim hissa qo'shmoqda. Tanlovda Andijon viloyatidan 4 312 ta yosh kitobxon oila ishtirok etish uchun ariza topshirgan, ular dastlab tuman va shahar bosqichlarida o'z salohiyatini namoyon etgan.

Viloyat bosqichida esa 16 ta eng muvaffaqiyatli oila o'zaro bellashib, ikki bosqichdan iborat sinovda o'z bilim va tezkorlik salohiyatini sinashdi. Birinchi bosqich – "Badiiy asarlar bilimdoni"da ishtirokchilar o'qigan kitoblari bo'yicha bilimlarini taqdim etgan bo'lsa, ikkinchi bosqich – "Tezkor savol-javob"da 4 ta savolga ikki daqiqa mobaynida aniq va tez javob berish talab etildi. Ushbu bosqichda oila boshi hamda oila bekasi birdek mas'uliyat bilan qatnashgani alohida e'tirof etildi.

Tanlov natijalariga ko'ra, 1-o'rinni Buloqboshi tumani, Ko'prikboshi mahallasidan Maxammadjonovlar oilasi, 2-o'rinni Qo'rg'ontepa tumani, Uch tegirmon mahallasidan Iminjonovlar oilasi, 3-o'rinni Paxtaobod tumani, Olmazor mahallasidan Qaraboyevlar oilasi egalladi.

Eng yuqori ball to'plagan Maxammadjonovlar oilasi tanlovning respublika bosqichida Andijon viloyati sharafini himoya qilish huquqiga ega bo'ldi.

Mazkur tanlov nafaqat kitob o'qish madaniyatini targ'ib etish, balki oila a'zolari o'rtasida yagona maqsadga erishishga, ularning intellektual salohiyatini namoyon etishga xizmat qiladigan muhim platformaga aylanmoqda. Kitob esa oilani birlashtiruvchi asosiy qadriyatlardan biri bo'lib qolmoqda.

Nafisa XALIMOVA,
Zuhriddin UMRZOQOV (surat).

«UZBEKISTAN AIRWAYS» AJ SAYYOR QABUL O'TKAZDI



"Uzbekistan Airways" aksiyadorlik jamiyati rahbariyati va kompaniyaning tarkibiy bo'linmalari mutasaddilari tomonidan Andijon shahrida sayyor qabul tashkil etildi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-apreldagi va 2021-yil 19-iyuldagi yig'ilish bayonnomalarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkazildi.

Sayyor qabul Andijon shahridagi "Chinor" mehmonxonasida bo'lib o'tdi. Unda joylardagi aholi va fuqarolar bilan ochiq muloqot tashkil etildi. Aviakompaniya faoliyati, parvozlar tartibi, yo'nalishlar tarmog'ini kengaytirish, xizmat sifati hamda ichki turizmni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Tadbir davomida fuqarolar tomonidan bildirilgan qator masalalar joyida hal etildi.

– Mamlakatimizda aviatsiya sohasini rivojlantirish, havo qatnovlarining barqaror va qulay bo'lishini ta'minlash asosiy vazifalarimizdan biridir. Joriy yilda jami 24 850 ta parvoz amalga oshirilib, 4 million 368 ming nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatildi, – deydi "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruvi raisi o'rinbosari Shuxrat Yadgarov.

Uning ta'kidlashicha, Farg'ona vodiysidagi yo'lovchilar talabidan kelib chiqib, Andijon xalqaro aeroportidan xalqaro va ichki parvozlarni tiklash bo'yicha qat'iy qaror qabul qilingan.

Joriy yil noyabr oyidan boshlab Andijondan Moskva, Istanbul, Sankt-Peterburg va Novosibirsk shaharlariga to'g'ridan-to'g'ri reyslar amalga oshiriladi. Shuningdek, Toshkentga muntazam ichki reyslar yo'lga qo'yilib, "Silk Avia" kompaniyasi tomonidan haftasiga ikki marta qo'shimcha parvozlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Bu o'zgarishlar nafaqat aholi uchun qulaylik yaratadi, balki hududiy turizm va ishbilarmonlik aloqalarini ham rivojlantiradi.

Aytish joizki, "Uzbekistan Airways" aviaparki joriy yilda 6 ta zamonaviy havo kemasi 2 ta Airbus A320neo, 2 ta ATR-72 hamda 2 ta LET-410 samolyoti bilan boyitildi. Bu esa parvozlar sifatini va xavfsizligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Kompaniya tomonidan bir qator xalqaro yo'nalishlar ham ochildi. Jumladan, Toshkentdan Sanya, Fukuok, Hanchjou, Goa, Hurgada, Maxachqala, Nyachang, Islomobod, Madrid va Tyumen shaharlariga parvozlar yo'lga qo'yildi. Rim, Mumbay va Laxor yo'nalishlari qayta tiklandi.

Bundan tashqari, kompaniyaning o'quv-mashg'ulot markazida yetuk mutaxassislar tayyorlanmoqda. 2024-yil bitiruvchilari Boeing 767 havo kemasida ikkinchi uchuvchi sifatida ish boshlagan bo'lsa, 2025-yil bitiruvchilari Airbus hay'ati tarkibida faoliyat yuritmoqda.

Yangi parvozlar Andijon va Farg'ona vodiysi aholisiga xavfsiz, qulay va iqtisodiy samarali sayohat imkonini taqdim etadi.

Faxriddin UBAYDULLAYEV,
Zuhriddin UMRZOQOV (surat),
O'zA muxbirlari.

Sport

"ANDIJON" XALQARO MAYDONDA YANA DURANG O'YNADI

22-oktyabr kuni futbol bo'yicha Osiyo Chempionlar Ligasi 2-turnirining 3-tur bahslari bo'lib o'tdi. Andijon shahrida joylashgan "Bobur Arena"da kechgan o'yinda "Andijon" klubi Bahraynning "Al-Holdiya" jamoasini qabul qildi.

Uchrashuv 0:0 hisobidagi durang natijasi bilan yakunlandi. Shu tariqa "burgutlar" xalqaro maydonda qatorasiga uchinchi o'yinda durang o'ynashdi. Qizig'i, ushbu bahslarning barchasida ham 0:0 hisobi qayd etildi.

"Andijon" — "Al-Holdiya" 0:0

"Andijon": 31. Erjan Tokotayev, 3. Sunnatullox Hamidjonov, 8. Shahzod Azmiddinov, 11. Otabek Jo'raqo'ziyev (88. Shohjahon Yorqinboyev, 79), 13. Sardorbek Azimov, 18. Damir Temirov (9. Saidumarxon Saidnurullayev, 73), 22. Usmonali Ismonaliyev, 23. Doniyor Abdumannopov (7. Ismail Akinade, 74), 26. Muhammadkarim Toirov, 27. Kristian Novak, 71. Bektemir Abdumannonov.

"Al-Holdiya": 41. Rikardo Manuel, 2. Said Dxiya, 4. Ahmed Bugammar, 8. Klayd O'Konnel (17. Hazza Ali, 46), 9. Gleyson Uilson, 19. Komail Al Asvad, 20. Said Eddin Buhra (3. Muhammad Odil, 62), 21. Mendi Dominik, 22. Ayub El Amlud, 26. Ayman Dairani, 99. Joel Beyya (13. Muhammad Al Romaihi, 71).

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

HALOLLIK – BU FAQAT SHIOR EMAS, BALKI FUQAROLIK BURCHI, VIJDON MEZONIDIR

Bugungi globallashuv davrida korrupsiya nafaqat bitta mamlakatning, balki butun insoniyatning jiddiy muammosiga aylangan. U davlatning iqtisodiy rivojlanishiga to'siq bo'libgina qolmay, xalqning adolat va ishonch tuyg'usini yemiradi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish har bir jamiyatda ustuvor masala hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon ushbu illatga qarshi qat'iy siyosat olib bormoqda. So'nggi yillarda korrupsiyani oldini olish, oshkoralikni ta'minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasida muhim huquqiy asoslar yaratildi. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, Prezidentning tegishli farmonlari hamda Milliy kengash faoliyati bu yo'nalishda yangi bosqichni boshlab berdi.

(Davomi 2-betda).

MAKTAB DIREKTORINING IMZOSI 4500 DOLLAR

Baliqchi tumanidagi maktablarning biri joylashgan mahalla "Obod qishloq" davlat dasturiga kiritiladi. Natijada maktab ham mukammal ta'mirlanadigan bo'ladi.

Qurilish bilan shug'ullanadigan MCHJ tomonidan maktabni mukammal ta'mirlash ishlari boshlanadi. Noyabr oyida topshirilishi belgilangan obyekt belgilangan vaqtda topshirilmaydi. Keyingi yil yanvar oyida topshiriladi. Mart oyi oxirlarida maktab direktori Qosimjon Ahmedovning oldiga MCHJ rahbari Tohir Yunusov keladi.

-Aka, mana ko'rib turibsiz, mukammal qurilish ishlarini tamomladik. Shunga dalolatnomaga imzo qo'yib berasizmi? – deb kelgandim.

Ular birga aylandi va qolib ketgan ancha-muncha ishlar borligi ayon bo'ldi.

-Bularni qachon qilasiz?

-Hisob-kitob qilgani kelaman. Oradan 1 oy o'tgach Tohir keldi.

-Qolganiga qancha mablag' ketarkan?

(Davomi 2-betda).

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

HALOLLIK – BU FAQAT SHIOR EMAS, BALKI FUQAROLIK BURCHI, VIJDON MEZONIDIR

(Davomi. Boshi 1-betda).

Bugun korrupsiya faqatgina rasmiy idoralarda emas, balki har bir inson ongida yengilishi kerak bo‘lgan illat sifatida qaralmoqda. Zero, halollik — bu faqat shior emas, balki fuqarolik burchi, vijdon mezonidir. Korrupsiyaning ildizini sug‘urib tashlash uchun yoshlarni halollik, mas’uliyat va qonunga hurmat ruhida tarbiyalash zarur. Shu maqsadda ta’lim muassasalarida “Halollik darslari” joriy etilib, o‘quvchilarda adolatli fikrlashni shakllantirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yilmoqda.



Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikning o‘rni beqiyos. Har bir fuqaro e’tiborsizlik bilan yondashish o‘rniga, qonunbuzarlikka nisbatan befarq bo‘lmasligi lozim. Chunki jimlik — korrupsiyaga yo‘l ochadi, faollik esa uni to‘xtatadi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Halollik — bu har bir rahbar va xodimning kundalik hayot mezoniga aylanishi kerak”. Shu bois, bugungi kunda barcha sohalarda ochiqlik, hisobdorlik va samaradorlikni ta’minlash maqsadida raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilmoqda. Bu nafaqat korrupsiyani kamaytiradi, balki xalqning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashish — bu bir kunlik yoki bir tashkilotning vazifasi emas. Bu jamiyatning barcha qatlamlari hamkorligida olib boriladigan umumxalq harakati bo‘lishi shart. Faqat shundagina biz adolat, halollik va ishonch hukmron bo‘lgan yangi O‘zbekistonni barpo eta olamiz.

Rayyona OMONOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti 1-bosqich talabasi.

Korrupsiya bugun yoki kecha paydo bo‘lgan emas. U qadimdan to hozirgacha davom etib kelayotgan illatdir. Misol uchun, o‘rta asr davlarini olsak, u davrda ham boy va mansabdor kishilar o‘z manfaati uchun, korrupsiyadan (boylik yoki mansabdan) foydalanishgan, zodagonlar oddiy aholiga adolatsizlik bilan qarashgan.

KORRUPSIYA: TARIXDAN SABOQ OLIB, KELAJAKNI ASRAYLIK!

Agar boy va oddiy dehqon o‘rtasida muammo paydo bo‘lsa, sud yoki qoziga murojaat qilishgan va natija boyning foydasiga hal qilingan. Chunki bu davrda sud jarayonlari hozirgidek qonun asosida emas, balki “kim kuchli-o‘sha haq” tamoyiliga asoslangan edi. Ya’ni sud tizimida adolat emas, boylik va mansab muhim ro‘l o‘ynagan.

O‘rta asrlarda din jamiyat hayotida katta o‘rin tutsa-da, ayrim diniy rahbarlar ham o‘z mavqeyidan shaxsiy foyda uchun foydalanishgan. Yevropada ba’zi rohiblar “gunohdan poklanish’’ uchun indulgensiya (pul evaziga kechirim qog‘oz) sotishgan. Bu esa diniy korrupsiya shaklining bir turi edi. Sharq mamlakatlarida esa sulton yoki xonning atrofidagi “saroy amaldorlari’’ sovg‘a yoki tanga evaziga yuqori mansabga chiqishgan. Natijada davlat boshqaruviga munosib kishilar emas, o‘zini “haq’’ deb bilganlar boshqargan. Tabiiyki, bu holatda adolat yo‘qolganligi sababli xalq orasida isyonlar avj olgan , davlat zaiflashgan va natijada mamlakat tanazzulga duch kelgan.

Asrlar davomida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘layotganiga qaramay hozirgi davrga kelib ham u yo‘qolmadi. Masalan hozirgi korrupsiyalardan biri: universitetni bitirgan inson ishga joylashish uchun bironta tashkilotga borsa, aksariyat hollarda ishga qabul qilinishi uchun undan pul talab qilishadi. Albatta, insonlarga Ish zarurligi uchun aytilgan pulni berishga majbur bo‘lishadi. Nega axir? Yillab o‘qiysan, diplomli bo‘lasan, ishga joylashish onida esa adolatsizlikka duch kelasan.



Bu adolatsizliklarga barham berish fursati kelmadimikin?!

Jamiyatimizdagi yomon illatlardan xalos bo‘lishimiz uchun har birimiz ma’sulmiz. Tarixdagi voqealardan saboq olib, mustahkam davlat va kelajak barpo etishimiz uchun korrupsiyaga qarshi qat’iy kurashishimiz, adolat va halollik yo‘lidan ketishimiz kerak, chunki davlatni rivojlatirish ham barbod qilish ham bizning qo‘limizda.

Yillar davomida korrupsiyaga qarshi kurash uchun boshqalarni o‘zgartiraman degan g‘oya ilgari suriladi. Buning o‘rniga, avvalo, o‘zim o‘zgaraman va boshqalarga o‘rnak bo‘laman degan fikr shakllansa jamiyatda o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Inson jamiyatni o‘zgartirishi uchun ta’kidlaganimdek, avvalo, o‘zini o‘zgartirishi kerak. Shundagina davlat ham jamiyat ham yuksaladi.

Zero, korrupsiya nafaqat qonun bilan, balki vijdon bilan ham kurashuvchi illatdir.

Anora NABIJONOVA.



MAKTAB DIREKTORINING IMZOSI 4500 DOLLAR

(Davomi. Boshi 1-betda).

-15-30 million so‘m.

-Aka, menda bir taklif bor.

-Qanaqa taklif?

-Shu desangiz, maktabga do‘kon qurmoqchi edim. Shunga qurilish mablag‘ini 1 foizini, ya’ni 50 million so‘m bersangiz bitkazib olardim. Qolaversa aytgan dalolatnomalaringizga ham qo‘l qo‘yib berardim.

-Mayli, unda pulni so‘mda beraymi yoki dollarda?

-Dollar bo‘lgani ma’qulroq.

-Unda siz aytgan summa qancha bo‘larkin. Hisoblab ko‘raylik.

-4500 dollar bo‘larkan.

-Men dollar qilib bo‘lgach telefon qilaman.

-Bo‘pti.

Qosimning qo‘l telefoni jiringladi. 2022 yilning 2 iyun kuni edi.

-Qosimjon kelishgan dollar tayyor bo‘ldi. Qayerdasiz?

-Maktabdaman.

-Boryapman.

Tohir to‘g‘ri maktab direktorini xonasiga kirib bordi. Qosim undan dalolatnomalarni olib, “Tanishib chiqaman” deb seyfiga solib qo‘ydi.

Tohir dollarlarni stol ustiga qo‘ydi. Qosim qilayotgan ishi qonunga zid ekanligini bilgani uchun ichki qo‘rquv bosdi. Uni qo‘liga ololmadi.

-Sanang-chi, to‘g‘rimi? – dedi.

Tohir qo‘li bilan ushlab sanab berdi. Qosim esa stoli ustidan bitta oq qog‘oz olib, unga berdi.

-Mana shunga o‘rang.

-Xo‘p. – dedi va Tohir qog‘ozga olib kelgan dollarlarni o‘radi.

Qosim esa yana bir maktab direktoriga qo‘ng‘iroq qildi.

-Yig‘ilishga birga boramiz. Tashqariga chiqib turing, olib ketaman, - dedi.

Shundan so‘ng Tohir bilan Qosimni mashinasiga o‘tirdilar va ularni kutayotgan maktab direktori yoniga to‘xtadi.

Qosim mashinadan tushdi. Hamkasbi yoniga borib, Tohirni ko‘rsatib:

-Shu yigit 50 million so‘m pul olib keldi.

-Dalolatnomaga qo‘l qo‘yib bermadingmi?

-Yo‘q.

Unda ketdik. Ular mashinaga o‘tirdilar. Tohir mashinaga chiqqan kishi bilan qo‘l berib ko‘rishdi.

-Pullarni shu akaga berib qo‘ying, - dedi Qosim.

Tohir qog‘ozga o‘rog‘lik pullarni berdi. U kishi esa cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Qosim:

-Pullarni ertaga olaman, - dedi...

Lekin, qing‘ir ishning qiyig‘i chiqdi. U pullar unga buyurmadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan qo‘lga olindi.

Mazkur ish yuzasidan jinoyat ishi ochilib, tergov harakatlari olib borildi. Yakunida sudga yuborildi.

Sud tomonidan Qosim Ahmedovga Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan 2 yilga davlat tashkilotlarida mansabdorlik va moddiy javobgarlik yuklatilgan lavozimlarda ishlash huquqidan mahrum qilinib, 3 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

M.BOLTABOEV,
Andijon viloyat prokuraturasining bo‘lim boshlig‘i.

Sud islohotlari

SUDLAR FAOLIYATI RAQAMLASHTIRILMOQDA

Odil sudlov sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha qanday yangiliklar joriy etiladi?



Joriy yilning 21-avgust kuni «Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» hamda «Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi ikkita muhim Prezident farmonlari imzolandi.

Bundan ko‘zlangan maqsad — aqlli texnologiyalarni qo‘llash orqali odamlarning suddagi shaxsiy ishtirokini maksimal kamaytirish, qog‘ozbozlik va inson omilini qisqartishish orqali fuqarolarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish.

Bugungi kunda mamlakatimiz sud amaliyotida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular fuqarolarning sud tizimidan foydalanishda bir qator to‘siqlarga duch kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Birinchidan, sud jarayonlariga murojaat qilishda yuzaga keladigan byurokratik to‘siqlar. Masalan, sudga ariza topshirish uchun fuqarolar hujjatlarni to‘plash, ularni notarial tasdiqdan o‘tkazish va rasmiylashtirishga majbur bo‘ladi. Bu jarayon ayniqsa yuridik bilimga ega bo‘lmagan oddiy fuqarolar uchun juda murakkabdir.

Ikkinchidan, sud ishlarining ko‘pincha uzoqqa cho‘zilishi, qarorlarning kechikishi va ma’lumotlarning shaffof emasligi fuqarolarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi.

Uchinchidan, sud jarayonlarida ishtirok etishning an’anaviy usullari saqlanib qolgan bo‘lib, bu fuqarolarning vaqti va imkoniyatlarining ortiqcha sarflanishiga olib keladi.

Masalan, sud majlislariga shaxsan kelish, uzoq navbatlarda kutish va murakkab rasmiyatchiliklardan o‘tish oddiy fuqarolar uchun katta ovoragarchilik tug‘diradi. Bu muammolar nafaqat fuqarolarning qonuniy huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlarini cheklaydi, balki ularning davlat institutiga bo‘lgan ishonchini ham kamaytiradi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish va sud-huquq tizimining samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengroq joriy etish zarur. Ushbu texnologiyalar sud jarayonlarining shaffofligini ta’minlash, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va fuqarolar uchun qulayliklar yaratish imkonini beradi.

Sun’iy intellektga asoslangan aqlli tizimlar orqali arizalarni elektron tarzda qabul qilish, hujjatlarni avtomatlashtirilgan tarzda ko‘rib chiqish va sud qarorlarining shaffofligini oshiradi.

Prezident imzolagan Farmon tahlil qilinadigan bo‘lsa, mamlakatimizda «Raqamli sud» konsepsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda, 2025-yil yakuniga qadar tajriba tariqasida Toshkent shahrida barcha raqamli imkoniyatlarni o‘zida mujassam etgan zamonaviy sud zallari tashkil etiladi. Tajriba natijalari asosida konsepsiya 2026–27-yillarda bosqichma-bosqich respublikaning barcha sudlarida tatbiq etiladi.

Bundan tashqari, fuqarolar va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish hamda sud ishlarini ko‘rishni soddalashtirish maqsadida bir qator choralar belgilanmoqda. Jumladan, endilikda murojaatlar sudga faqatgina elektron shaklda yuboriladi va sud ishlari to‘liq elektron tarzda yuritiladi.

Misol uchun, oldinlari aksariyat hollarda fuqarolar va tadbirkorlar sudga ariza yoki da’vo arizasini qog‘oz shaklda, sud devonxonasiga shaxsan borib topshirardi. Bu esa ortiqcha vaqt va xarajatlar deganidir.

Yana bir muhim qulaylik — ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud binosiga tashrif buyurmaydi va sud muhokamalarida masofadan turib ishtirok etadi. Bungacha sud muhokamalarida masofadan turib ishtirok etish uchun sud ishida raislik qiluvchining ruxsati kerak bo‘lgan.

Endi sud xarajatlari elektron shaklda hisoblanadi va to‘lanadi. Oldinlari bu jarayonda inson omili kuchli bo‘lgan. Bu yangi tartib tizimda korrupsiya holatlarini keskin qisqartirishga yordam beradi.

Boshqa bir muhim yangilik — sudga ariza berishdan oldin sun’iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sarflanadigan xarajatlar shakllantirish imkoniyati paydo bo‘lmoqda.

Ya’ni sud jarayoni boshlanmasdan oldin uning taxminiy natijasini bilish imkoniyati yaratilmoqda.

Bundan tashqari, taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga sud jarayonlarida ishga doir barcha materiallar bilan elektron shaklda tanishish imkoniyati yaratiladi, sun’iy intellekt yordamida sud majlisi bayonnomalari real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlanadi. Sud hujjatlari loyihalari ham avtomatik shakllantiriladi.

Ikkinchi farmonga ko‘ra Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi negizida Odil sudlov akademiyasi tashkil etiladi. Akademiyada ta’lim jarayoni ustoz-shogird an’anasi asosida «bo‘lajak sudyani sudya o‘qitadi» tamoyiliga muvofiq tashkil etiladi.

2025-yil 1-oktyabrdan boshlab sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash Akademiyaning olti oylik kasbiy qayta tayyorlash kurslarida davlat granti asosida sud ixtisosliklari bo‘yicha tashkil etiladi.

Bunda kasbiy qayta tayyorlash kurslariga qabul qilingan shaxslarning asosiy ish joyi bo‘yicha lavozimi saqlanadi, shuningdek sudya yordamchisining bir oylik mehnatiga haq to‘lash fondi miqdorida har oyda stipendiya to‘lanadi. Tuman (shahar) va viloyat sudlarining tegishli rahbarlik lavozimlarini egallash uchun zaxirada bo‘lgan sudyalar davomiyligi ikki oygacha bo‘lgan rahbar kadrlarni qayta tayyorlash kurslarida o‘qitiladi.

Sh.ARABBOYEV,
K.TAJIMATOV,
Fuqarolik ishlari bo‘yicha Andijon tumanlararo sudi sudyalari.

Mutaxassis maslahati

PIYOZ PASHSHASI VA QARSHI KURASH CHORALARI

Piyoz pashshasining soxta g‘umbaklari tuproqning 10-20 sm. chuqurligida piyoz ekilgan dalalarda qishlaydi. Erta bahorda pashshalari aprel-may oylarida uchib o‘simlikka yaqin tuproq bo‘lakchalariga va piyoz barglariga 5-12 tadan tuxum qo‘yadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar piyoz bilan oziqlangach, piyozlar irib ketadi. Bitta piyozda 10-15 ta lichinka rivojlanadi.







Zararkunanda piyoz va sarimsoq piyozga zarar yetkazadi. Shikastlangan o‘simlik tashqi ko‘rinish bo‘yicha ajrala boshlab, barglari o‘sishdan to‘xtab, buraladi, sarg‘ayadi va uchidan boshlab quriydi. O‘simlik tuganaklari yorilib, zararlanish belgisini beradi, mevasi kichik va sifatsiz bo‘lib qoladi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar piyoz bilan oziqlangach, piyozlar irib ketadi. Bitta piyozda 10-15 ta lichinka rivojlanadi.

Piyoz pashshasi yiliga 2 marta avlod berib rivojlanadi

Kurash choralari. Agrotexnik tadbirlar: bir marta piyoz ekilgan dalaga qayta 3-4-yildan keyin piyoz ekish tavsiya etiladi; piyoz va sarimsoq piyozdan bo‘shagan dalalar chuqur kuzgi shudgor qilinadi; piyozdan bo‘shagan dalalarda o‘simlik qoldiqlari yo‘qotiladi; piyoz erta muddatlarda ekilishi lozim.

Zuhriddin ONARBOYEV,
Maxsudbek MO‘MINOV,
“Mingtepa”OKCHM davlat karantin inspektorlari.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида яшаб, 2023 йил 29 ноябрь куни вафот этган марҳум **РУЗИБОЕВА ГУЛНОЗОЙ АСТАНОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Айланма кўчаси, 1-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Н.Н.Мадаминов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Озодлик МФЙ, Муса Жалил кўчаси 53-уйда яшаб, 2009 йил 8 февраль куни вафот этган марҳум **МАДАМИНОВА ТАДЖИХОН ХХХ,**

Андижон шаҳри, Озодлик МФЙ, Муса Жалил кўчаси 53-уйда яшаб, 2016 йил 21 ноябрь куни вафот этган марҳум **IBRAXIMOVA MAMLAKATXON XXX,**

Андижон шаҳри, Озодлик МФЙ, Муса Жалил кўчаси 53-уйда яшаб, 1997 йил 13 март куни вафот этган марҳум **ЗЯБИРОВА МАРХАБАТХОН ХХХ,**

Андижон шаҳри, Озодлик МФЙ, Муса Жалил кўчаси 53-уйда яшаб, 2019 йил 12 июнь куни вафот этган марҳум **MADAMINOV ADXAM IBRAGIMOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шоҳкўчаси, 10/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.И.Мамадалиев нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Янги ҳаёт МФЙ, Наврўз кўчаси, 66-уйда яшаб, 2023 йил 29 июль куни вафот этган марҳум **YANGIBOYEVA TOXTAXON SHAXOBUDINOVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2007 йил 24 сентябрь куни вафот этган **РЎЗИЕВ КОМИЛЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Дархон МФЙ, Истеъдод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Н.О.Расулов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Гузар МФЙ, А.Навоий кўчасидаги уйда яшаб, 2014 йил 22 ноябрь куни вафот этган марҳум **АБДИКАРИМОВА ФОТИМАХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Турон МФЙ, Ал Бухорий кўчасидаги уйда яшаб, 1997 йил 23 октябрь куни вафот этган марҳум **ЖАЛИЛОВ ТУРСУН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шоҳкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Абдубий МФЙда яшаб, 2017 йил 10 декабрда вафот этган марҳум **ABDULLAYEV BEGALI**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Улуғнор тумани, Овулмат МФЙда яшаб, 2024 йил 21 ноябрда вафот этган марҳум **МАЛИКОВ САЛАЙДИН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Улуғнор тумани, Шаҳриобод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Б.Ўрмонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

«JAHON SAVDO KOMPLEKSI» AJ AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

«JAHON SAVDO KOMPLEKSI» AJ aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig‘ilishi 2025-yil 15-noyabr kuni soat 11.00 da jamiyat majlislar zalida o‘tkaziladi.
Manzil: Andijon shahar, Nayman ko‘cha, 69-uy.
El.pochta manzili : jahon-sk@yandex.ru
Aksiyadorlar ro‘yxati(reyestri) tuzilgan sana:
- Aksiyadorlarga xabar berish uchun – 20.10.2025-yil holatiga;
- Umumiy yig‘ilishda ishtirok etish uchun – 11.11.2025-yil holatiga.

KUN TARTIBIGA QUYIDAGI MASALALAR QO‘YILGAN:

1. Jamiyatda o‘rni bo‘shab qolgan kuzatuv Kengashi tarkibiga saylov to‘g‘risida.
2. «JANON SAVDO KOMPLEKSI» AJ hududida qurib bitkazilgan do‘konlar to‘g‘risida.
3. Jamiyat aksiyadorlarining 18-noyabr 2023-yildagi umumiy yig‘ilish qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida.

Umumiy yig‘ilish kun tartibidagi masalaga doir hujjatlar bilan aksiyadorlar jamiyat buxgalteriyasida tanishishlari mumkin.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishga shaxsini tasdiqlovchi hujjat va aksiyalarga egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjatlari bilan kelishlari so‘raladi.

Umumiy yig‘ilishga yuridik shaxs bo‘lgan aksiyadorning vakili yuridik shaxs rahbari imzosi va muhri bilan tasdiqlangan ishonchnoma asosida. jismoniy shaxs bo‘lgan aksiyadorning vakili notarial tartibda tasdiqlangan ishonchnoma asosida qatnashish huquqiga ega.

Jamiyat kuzatuv Kengashi

ABU ALI AL-MUHASSIN AT-TANUHIY

Maroqli hikoyatlar

Quyidagi voqeani menga Talha ibn Ubaydulloh ibn Kannosh so‘zlab bergan:

— Bir kuni Sayf o‘d-Davlaning ulfatlari davrasida o‘tirardim. Do‘stona suhbat asnosida qandaydir bir odamni sudrab olib kelishdi. Amir nimadir deb, uni o‘limga buyurdi, hukmi darhol bajarildi..

Shunda amir bizga qarab, dedi:

— Naqadar adabsizlik! Saroyimdagi xulq-axloqning holiga voy! Ana odamgarchilik! Nahotki, birontangiz hukmdorlar haqidagi rivoyatlarni eshitmagansiz? Nahotki, ezgulikka ishonmaysiz? Yo sizga shunday tarbiya berishganmi?

Amir birontamizni nojo‘ya ishimizdan voqif bo‘lgan ko‘rinadi, shu bois bizga dashnom beryapti, deb o‘ylanib qoldik. So‘ng dedik:

— Biz husni xulqni janoblaridan o‘rganganmiz (biz amirga “janoblari” deb murojaat qilardik). Bu ta’nalarning boisi ne, bilolmay turibmiz. O‘zlari izohlab bersalar, ayni muddao bo‘lurdi…

Amir dedi:

— Nahot ko‘rmadingiz? Ko‘z oldingizda bir musulmonning qonini to‘kdim. Bir chekkasi — hokimiyatparastlik, qisman tuban siyosiy manfaat vajidan shunday hukm chiqardim. Oralaringizda biron-bir es-hushli odam so‘z olib, mahkumning bir qoshiq qonini kechishni mendan so‘rardi, deb umidvor edim. Uning aytganini qilardim ham. Bu ish mahkumga ham, umuman ahli fuqaroga ham odillik bo‘lurdi. Sizlar esa lom-mim demadingiz. Oqibatda bir insonni aziz jonidan judo etdim.

— Janoblarining muborak amrlariga monelik ko‘rgazishga yuragimiz betlamadi, — deb, o‘zimizni oqlamoqchi bo‘ldik. Amir esa yana so‘roqqa tutdi:

— Barakallo! Gap bir mo‘minning hayot-mamoti ustida borsa ham og‘iz ochmay o‘tiraveramiz, deng? O‘zingizni oqlay olmaysiz! Aslo! Biz shunday hollarda endi sukut saqlamaslikka amirga so‘z berdik. Ammo uning ko‘ngli tinchimaguniga qadar o‘zimizni oqlashda davom etdik.

Ko‘pgina kishilardan eshitganim mana bu hikoyani menga padari buzrukvorim so‘zlab berganlar:

— Abu Hanifadan fiqh ilmini o‘rgangan Abu Yusuf dastlab ancha kambag‘al odam bo‘lgan. Ustozidan erta-yu kech saboq olish bilan bandligi sababli tirikchiligi bazo‘r o‘tgan. Har kuni qosh qorayganda g‘arib kulbasiga qaytib, boriga qanoat qilib yashagan. Xotini boyoqish o‘zini va erini bir amallab boqish uchun ko‘p mashaqqatlar chekkan. Bu ahvol uzoq vaqt davom etgan. Nihoyat xotinining sabr kosasi to‘lib, bir kech Abu Yusuf saboqdan qaytib kelganida taom solingan tovoq o‘rniga qozonchani tutqazgan. Abu Yusuf tovoqni ochib qarasa, o‘zining xat bitilgan daftarlari. Hayron bo‘lib so‘raydi:

— Bu nimasi?

— Uzzu-kun shu daftarlarni xat yozib, to‘ldirdingiz, endi ularni kechlik o‘rnida ko‘raverasiz, — deb javob qiladi xotini.

Shunda Abu Yusuf yig‘lab yuboradi va noiloj o‘ringa cho‘ziladi. Ertasi kun barvaqt turib, ko‘chaga chiqib ketadi, yegulik bir nima topib kelib, so‘ng saboqqa yo‘l oladi. Abu Hanifa huzuriga ham kechikib boradi. Ustozining:

— Nega xayallab qolding, — degan savoliga javoban bor gapni ro‘yi-rost aytib beradi.

— Nega menga bir og‘iz aytmading, — so‘raydi ustozi, — albatta yordam bergan bo‘lurdim.

Abu Yusuf boshini egib turaveradi. Shunda ustozi deydi:

— Xafa bo‘lma! Boshing omon bo‘lsa, bu yiqqan bilimlaring seni albatta boqadi. Pista-bodomli halvolar yeysan hali!

Otamlarning aytishlariga qaraganda, Abu Yusuf shunday degan ekan:

— Ustozim karomat qilgan ekanlar. Horun ar-Rashid saroyida xizmat qila boshlagan paytlarim edi. Bir kuni dasturxonga pista-bodomli halvo keltirib qo‘yishdi. Uni totib ko‘rarkanman, Abu Hanifa hazratlarining so‘zlari yodimga tushdi. Ko‘zlarimga duv etib yosh keldi. Horun ar-Rashid janoblari buning sababini so‘radilar. Men boshimdan o‘tgan o‘sha voqeani hukmdorga so‘zlab berdim.

Ilhom SULTONOV tarjimasi.
«Jahon adabiyoti» jurnali, 2002 yil, 12-son.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi.
«ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 23.10.2025-yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 23.10.2025-yil, soat 14.00.
Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li